



## MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASIDA NEYROPSIXOLOGIK FAOLIYATNING O'ZIGA XOSLIGI

**Malika Po'latxo'jayeva,**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1712>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ	ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ
<p><b>Qabul qilindi:</b> 16-iyun 2026-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 18-iyun 2026-yil <b>Jurnal soni:</b> 18-C <b>Maqola raqami:</b> 2</p> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА</b></p> <p>qo'l motorikasi, kompleks yondashuv, vizual idrok, nevroz, psixonevroz, funktsiya, asab-ruhiy faoliyat, psixopatiya, eshitish nuqsoni, reabilitatsiya</p>	<p>Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning neyropsixologik faoliyati va rivojlanish xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Eshitish analizatori faoliyatidagi buzilishlarning bolaning nutqiy rivojlanishi, bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy holati hamda ijtimoiy moslashuviga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda kompleks yondashuvning ahamiyati, oila va mutaxassislar hamkorligining o'rni hamda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning asosiy yo'nalishlari bayon etilgan. Maqolada eshitish qobiliyati pasayishining dastlabki belgilari, bolalarda uchraydigan xulq-atvor va kommunikativ muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda oldini olish yo'llari tahlil qilingan. Bundan tashqari, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirishning neyropsixologik asoslari ochib berilib, amaliy mashg'ulotlar va rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.</p>
ABOUT THE PAPER	ANNOTATION
<p><b>Accepted:</b> 16 June 2026 <b>Approved:</b> 18 June 2026 <b>Volume:</b> 18-C <b>Paper number:</b> 2</p> <p><b>KEYWORDS</b></p> <p>manual motility, complex approach, visual perception, neurosis, psychoneurosis, function, neuropsychiatric activity, psychopathy, hearing impairment, rehabilitation</p>	<p>This article provides a scientific and theoretical analysis of the neuropsychological activity and developmental characteristics of preschool children with hearing impairments. The impact of disturbances in the functioning of the auditory analyzer on the child's speech development, cognitive processes, emotional-volitional state and social adaptation is highlighted. The importance of an integrated approach to raising children with hearing impairments, the role of family and specialist cooperation, and the main directions of correctional and developmental work are also described. The article analyzes the early signs of hearing loss, behavioral and communicative problems in children, their causes and ways to prevent them. In addition, the neuropsychological foundations of the development of fine motor skills in children with developmental disabilities are revealed, and recommendations are given for the use of practical exercises and developmental games. The results of the study are of great importance in supporting the mental development of children with hearing impairments, in forming their speech and social competencies, and in ensuring their successful integration into society.</p>

**Kirish.** Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda inson hayotiga ta'sir qiluvchi omillar soni tobora ortib bormoqda. Axborot oqimining haddan tashqari ko'payishi bolalarning erta yoshdan boshlab katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida ularning psixologik holati, emotsional barqarorligi va asab tizimi faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rivojlanishida muayyan nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarda bunday ta'sirlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni qabul qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelganliklari sababli ularning ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishi alohida pedagogik yondashuvni talab qiladi.

Yangi davr ota-onalar va pedagoglar zimmasiga bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Bolaning axloqiy, psixologik va jismoniy jihatdan sog'lom rivojlanishi uning turli hayotiy vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatini shakllantiradi. Ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda mustaqillik, ijtimoiy faollik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday bolalar ko'pincha muloqot jarayonida muayyan to'siqlarga duch keladilar va bu holat ularning emotsional holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining asosiy maqsadi ularni real hayot sharoitlariga tayyorlash, oila va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga o'rgatish hamda ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Bunda bolani faqat ta'lim olishga emas, balki kundalik hayot faoliyatini mustaqil tashkil eta olishga, atrofda bilan samarali muloqot qilishga va o'z imkoniyatlaridan to'laonli foydalanishga o'rgatish muhim hisoblanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning yosh va individual xususiyatlari, psixofiziologik rivojlanish darajasi hamda eshitish nuqsonining darajasi inobatga olinishi zarur.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashdir. Bunda bolalarning jismoniy rivojlanishiga, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, harakat faolligini oshirishga hamda organizmning

himoya imkoniyatlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chidamlilik, sabr-toqat, qiyinchiliklarni yenga olish kabi sifatlarini shakllantirish bolalarning kelajakdagi mustaqil hayotiga tayyorgarlikning muhim omillaridan biridir.

Shuningdek, axloqiy tarbiya ham alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy tarbiya jarayonida bolalarda mehr-oqibat, insonparvarlik, kattalarga hurmat, tengdoshlariga nisbatan do'stona munosabat, mas'uliyat va halollik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Milliy qadriyatlar va an'analar asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda o'z xalqiga, Vatanga va madaniy merosiga nisbatan hurmat tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning neyropsixologik rivojlanishi, nutq faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish masalalari maxsus pedagogika, surdopedagogika, nevropatologiya hamda rivojlanish psixologiyasi fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bolalarning rivojlanishidagi mavjud cheklovlarni erta aniqlash, samarali korreksion-pedagogik yordamni tashkil etish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlash imkonini beradi.

Surdopedagogika sohasidagi fundamental tadqiqotlardan biri P.A. Yann tomonidan amalga oshirilgan. Muallif eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitishning nazariy asoslarini tahlil qilib, eshitish analizatori faoliyatidagi buzilishlar bolaning nutqiy, intellektual va emotsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, korreksion-pedagogik ishlar qanchalik erta boshlansa, bolaning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyalari shunchalik muvaffaqiyatli shakllanadi [1, 42-48-b.].

N.D. Shmatko va T.V. Pelymskaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning oilaviy tarbiyasi masalalari batafsil yoritilgan. Mualliflar ota-onalarning pedagogik savodxonligi va bolaga nisbatan to'g'ri yondashuvi uning keyingi rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri ekanligini qayd etadilar. Tadqiqotchilar bolaning nutqiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini

oshirishda oilaviy muhitning o'zining beqiyos ekanligini ko'rsatib beradilar [2, 17–24-b.].

Y.A. Kardashning ilmiy tadqiqotlari korreksion muassasalar va oila o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatiga bag'ishlangan. Muallifning ta'kidlashicha, reabilitatsiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyatiga bog'liq. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasida uzviy aloqaning mavjudligi bolaning emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3, 86–92-b.].

Nevropsixologik va fiziologik jihatlar S.S. Lyapidevskiyning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olim markaziy nerv tizimining rivojlanishi va uning psixik funksiyalar bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, sensor nuqsonlar bolaning umumiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Muallif mayda motorika rivojlanishi bilan nutq faoliyati o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini ta'kidlab, korreksion mashg'ulotlarda barmoq harakatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi [4, 153–160-b.].

L.N. Kosheleva o'z tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvi muammolarini o'rganagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maxsus ehtiyojli bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, kommunikativ faoliyatni rag'batlantirish va mustaqillikni shakllantirish muvaffaqiyatli integratsiyaning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Muallif korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatda oila, maktab va jamiyatning hamkorligini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [5, 64–71-b.].

Maxsus pedagogika va logopediya sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda mayda qo'l motorikasining rivojlanishi nutq faoliyatining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq ekani qayd etilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, barmoqlar harakatining faollashuvi bosh miya po'stlog'ining nutq markazlarini rag'batlantiradi, natijada bolaning lug'at boyligi, talaffuz ko'nikmalari va muloqot faolligi ortadi. Shu sababli korreksion-pedagogik dasturlarda motor rivojlantiruvchi mashqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi [4, 175–181-b.].

Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda emotsional sohaning rivojlanishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Nutqni muloqotning cheklanganligi ayrim hollarda tortinchoqlik, ishonchsizlik, ijtimoiy faollikning pasayishi va kommunikativ qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bois bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar nafaqat ta'limiy, balki psixologik qo'llab-quvvatlash vazifalarini ham qamrab olishi zarur [2, 58–63-b.].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar tomonidan korreksion-pedagogik yordam, oilaviy qo'llab-quvvatlash, psixologik reabilitatsiya hamda mayda motorikani rivojlantirishning o'zaro uyg'unligi bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy omillari sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda neyropsixologik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo sifatida ahamiyat kasb etadi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning neyropsixologik faoliyati va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish masalalari nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini maxsus pedagogika, surdopedagogika, rivojlanish psixologiyasi va neyropsixologiya fanlarining konseptual yondashuvlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning yosh va individual xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan pedagogik kuzatish, suhbat hamda amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullari qo'llanildi. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar mazmuni va ularning nutqiy hamda kognitiv rivojlanishga ta'siri maxsus pedagogik manbalar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda kompleks yondashuv tamoyiliga tayangan holda bola, oila va mutaxassislar hamkorligining ahamiyati baholandi. Olingan ma'lumotlar sifat jihatidan tahlil qilinib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning neyropsixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Natijalar.** Bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish ham zamonaviy tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, atrof-muhitni asrash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish orqali bolalarda ekologik ong va ekologik mas'uliyat rivojlantiriladi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar, kuzatishlar va tabiat qo'ynidagi faoliyatlar orqali ekologik tarbiya samaradorligi yanada ortadi.

Mehnat tarbiyasi esa bolalarning mustaqilligi va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni yoshligidan boshlab oddiy mehnat ko'nikmalariga o'rgatish, uy-ro'zg'or ishlarida ishtirok etishga jalb qilish, o'z buyumlarini tartibga keltirishga o'rgatish ularda mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Mehnat faoliyati nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki bolaning psixik rivojlanishi, diqqat va tafakkur jarayonlarining faollashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash, vaziyatni tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Shoshilmasdan xulosa chiqarish, voqealarga tanqidiy yondashish va o'z harakatlarini nazorat qila olish kabi sifatlar bolaning kelgusidagi ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik metodlar, vizual vositalar va amaliy faoliyatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, ularning jismoniy, ruhiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini uyg'un ravishda ta'minlashni talab etadi. Tarbiyaning mazkur yo'nalishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bolalarning jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yogba chiqarishiga xizmat qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga har tomonlama yondashuv ularning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishini, jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini hamda mustaqil hayot kechirishga tayyorlanishini ta'minlashga qaratilgan. Zamonaviy maxsus pedagogika va psixologiya fanlarida bunday bolalarni qo'llab-quvvatlash faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy reabilitatsiyani o'z ichiga oluvchi kompleks tizim asosida tashkil etilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Kompleks yondashuvning asosiy maqsadlaridan biri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashdir. Buning uchun bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish va kelajakda kasbiy faoliyatga tayyorlash ham mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismidir.

Bolalar bog'chasi, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalari tizimida olib boriladigan reabilitatsion-pedagogik ishlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Ta'limning har bir bosqichida bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olinib, keyingi bosqichga uzviy o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Ayniqsa, kasbiy yo'naltirish ishlari erta yoshdan boshlab tashkil etilishi, bolaning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda rivojlantirilishi katta ahamiyatga ega.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ota-onalariga psixologik yordam ko'rsatish ham kompleks yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Ota-onalar farzandining rivojlanish xususiyatlarini, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ehtiyojlari va korreksion ishlarning mazmuni haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Shu maqsadda ularga muntazam ravishda maslahatlar berish, seminar va treninglar tashkil etish, psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yish muhimdir.

Shubhasiz, bunday tizim eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishidagi muammolarni bartaraf etish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash va psixologik qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan ishlashni faqat maslahatlar berish bilan cheklash yetarli emas. Oilada olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, mutaxassislar bilan hamkorlik va bolaga nisbatan yagona pedagogik talablarning mavjudligi uning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmagan taqdirda bolaning to'laqonli reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyalashuvi murakkablashadi.

Ko'plab hollarda eshitish qobiliyatining pasayishi uzoq vaqt davomida sezilmay qolishi mumkin. Bunga bir necha omillar sabab bo'ladi. Ayrim bolalar eshitishdagi muammoni o'zlari sezmaydilar yoki bu haqda shikoyat qilmaydilar. Ba'zan esa eshitish qobiliyatining pasayishi yaqqol tashqi belgilar bilan namoyon bo'lmaydi. Bundan tashqari, ayrim hollarda eshitishdagi buzilishlar vaqtinchalik bo'lib, o'rta quloqdagi yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki surunkali kasalliklar natijasida asta-sekin rivojlanadi.

Eshitish qobiliyati pasayishining dastlabki belgilari bolaning yoshiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Emizikli bolalarda baland tovushlarga javob reaksiyasining sustligi, ovoz manbaiga e'tibor qaratmaslik, kam tovush chiqarish yoki atrofdegilar bilan ko'proq mimika orqali muloqot qilish kabi holatlar kuzatiladi. Kichik yoshdagi bolalarda esa imo-ishoralar orqali muloqot qilishga moyillikning kuchayishi, so'zlarni talaffuz

qilishdagi qiyinchiliklar va nutq rivojlanishining kechikishi e'tiborni tortadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda eshitis nuqsoni ko'pincha nutqning tushunarsizligi, muloqotga bo'lgan qiziqishning pasayishi va o'z ehtiyojlarini ifodalashda qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi. Maktab yoshiga kelib esa tortinchoqlik, ijtimoiy faollikning kamayishi, tengdoshlar bilan muloqotdan qochish, o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklar va o'zlashtirish darajasining pasayishi kuzatilishi mumkin. Bunday bolalar ko'pincha so'zlarni qaytarishni so'raydilar yoki savollarga noto'g'ri javob beradilar, bu esa ularning nutqiy rivojlanishidagi muammolar bilan bog'liq bo'ladi.

Bolalarda asabiylashish holatlarining oldini olish ham muhim vazifalardan biridir. Kattalarning noto'g'ri munosabati, bolaga nisbatan haddan tashqari talabchanlik yoki befarqlik uning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada qaysarlik, injiqlik, agressivlik yoki nevroitik reaksiyalar shakllanishi mumkin. Uzoq davom etgan nevroitik holatlar esa bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xulq-atvordagi barqaror buzilishlarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas.

Harakat ko'nikmalarining rivojlanishi ham bolaning umumiy psixik taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Sog'lom rivojlanayotgan bola atrof-muhitga qiziqish bildiradi, kattalar va tengdoshlari bilan faol muloqotga kirishadi, turli o'yinlarda qatnashadi. Biroq ayrim hollarda bolalarda nomaqbul xulq-atvor shakllari kuzatilishi mumkin. Jumladan, qaysarlik, injiqlik, sababsiz yig'lash, muloqotdan qochish, jamoaviy faoliyatda qatnashishni istamaslik yoki ortiqcha harakatchanlik shular jumlasidandir.

Bunday holatlarni bartaraf etishda bolaga nisbatan sabr-toqatli va mehribon munosabatda bo'lish muhim hisoblanadi. Mutaxassislar bolaning salbiy xatti-harakatlarini jazolash emas, balki ularning sabablarini aniqlash va korreksion-pedagogik choralarini qo'llashni tavsiya etadilar. Bolaning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, uni foydali mashg'ulotlarga jalb etish, tengdoshlari bilan hamkorlikdagi o'yinlarni tashkil etish va individual yondashuvni ta'minlash orqali ko'plab muammolarni samarali hal etish mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda kompleks yondashuv, oila va mutaxassislar hamkorligi, erta diagnostika hamda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash muhim omillar hisoblanadi. Mazkur omillarning uyg'unligi bolalarning to'laqonli rivojlanishi va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar tizimida mayda qo'l motorikasini rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'l barmoqlari harakatlari va nutq rivojlanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Barmoqlar harakatining takomillashuvi bosh miya po'stlog'idagi nutq markazlari faoliyatini faollashtiradi, diqqat, xotira, tafakkur va idrok jarayonlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, eshitisda nuqsoni bo'lgan bolalarda mayda motorikani rivojlantirish nutqiy va kognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Mayda mushak motorikasini rivojlantirish ishlari oddiy amaliy harakatlardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, bolaga shaffof idish berilib, unga mayda predmetlarni tashlash va ularni kuzatish taklif etiladi. Bunday mashg'ulotlar bolaning qo'l-barmoq harakatlarini muvofiqlashtirish bilan birga, predmetlarning xususiyatlari va fazoviy joylashuvini tushunishiga yordam beradi. Predmetlarning idish ichida harakatlanishi va tushib ketishini kuzatish orqali bolada sabab-oqibat bog'lanishlari haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi.

Harakatlanuvchi jismlar bilan tashkil etilgan o'yinlar ham mayda motorika va sensor rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, koptok yoki havo sharining harakatini kuzatish, ularni ushlash yoki ma'lum yo'nalishda harakatlantirish bolaning ko'rish idroki, diqqatini jamlash va qo'l-harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar o'yin shaklida tashkil etilganda bolada qiziqish va faollik yanada ortadi.

Bolani mexanik harakatga keluvchi o'yinchoqlar va buyumlar bilan tanishtirish ham foydalidir. Bunday predmetlar bilan ishlash jarayonida bola harakat va natija o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi, mustaqil tajriba orttiradi va amaliy faoliyatga qiziqishi ortadi. Shu bilan birga, mayda predmetlarni turli idishlarga solish va ajratish mashqlari qo'l mushaklarini mustahkamlashga, predmetlarni ushlash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rangli predmetlardan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi. Bola rangli buyumlarni turli idishlarga joylashtirar ekan, nafaqat qo'l harakatlarini mashq qiladi, balki ranglarni farqlash, predmetlarni

taqqoslash va guruhlarga ajratish kabi aqliy operatsiyalarni ham bajaradi. Bu esa sensor rivojlanish va tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

Geometrik shakllar bilan ishlash ham mayda motorikani rivojlantirishning muhim vositalaridan biridir. Montessori pedagogikasi asosida yaratilgan maxsus taxtachalar va shakllar yordamida bola aylana, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak kabi geometrik figuralarni mos joylariga qo'yishni o'rganadi. Bunday mashqlar qo'l harakatlari aniqligini oshirish bilan birga, fazoviy tasavvurlar va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Marjonlar, zanjirilar yoki qog'oz bo'laklari bilan bajariladigan mashg'ulotlar ham bolalarda barmoqlar epcchilligini rivojlantiradi. Predmetlarni yig'ish, ushlash va ma'lum joyga joylashtirish jarayonida qo'l mushaklari faol ishlaydi. Bu esa yozuvga tayyorgarlik ko'rish va mustaqil amaliy faoliyatni shakllantirish uchun muhim asos yaratadi.

Shuningdek, ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar bilan ishlash bolalarning qiziqishini oshiradi. Masalan, arqonga bog'langan shaqildoqni ushlash va uni harakatlantirish orqali ovoz chiqarish bolani faol harakat qilishga undaydi. Bunda ko'rish, harakat va eshitis analizatorlarining o'zaro hamkorligi kuchayadi.

Mayda predmetlar bilan ishlashga asoslangan mashg'ulotlar asta-sekin murakkablashtirib borilishi kerak. Tugmalar, mozaikalar, toshchalar va boshqa mayda buyumlarni idishga solish, maxsus teshiklardan o'tkazish yoki ma'lum tartibda joylashtirish kabi topshiriqlar bolaning aniqlik bilan harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu mashqlar muvaffaqiyatli o'zlashtirilgandan so'ng turli piramidalarni yig'ish va konstruktor elementlari bilan ishlash tavsiya etiladi.

Piramidalarni yig'ish faoliyati bolaning nafaqat motorikasini, balki tahlil qilish, taqqoslash va ketma-ketlikni tushunish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Keyingi bosqichda turli shakl va hajmdagi qutilarni ochish va yopish mashqlari qo'llaniladi. Bunday topshiriqlar qo'l barmoqlari harakatlarini yanada takomillashtirib, amaliy mustaqillikni rivojlantiradi.

Takrorlanuvchi harakatlarga asoslangan barmoq mashqlari ham katta ahamiyatga ega. Kaftni musht qilish, barmoqlar bilan stol ustida yurish, sakrash harakatlarini bajarish, qo'llarni turli holatlarda harakatlantirish kabi mashqlar mushaklar faoliyatini faollashtiradi. Shu bilan birga, bu mashqlar harakatlarni rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Barmoqlar harakatini rivojlantirishda musiqiy faoliyat ham samarali vosita hisoblanadi. Kichik pianino yoki bolalar uchun mo'ljallangan klaviaturali o'yinchoqlarda alohida barmoqlar bilan tugmachalarni bosish mashqlari qo'l harakatlari aniqligini oshiradi, ritm hissini rivojlantiradi va sensor-motor integratsiyani mustahkamlaydi.

Mayda mushak motorikasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nafaqat jismoniy, balki nutqiy, kognitiv va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mashg'ulotlarning muntazam va tizimli ravishda tashkil etilishi bolalarning mustaqilligi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda ijtimoiy moslashuv darajasining oshishiga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Maktabgacha yoshdagi eshitisda nuqsoni bo'lgan bolalarning neyropsixologik rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat ularning nutqiy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eshitis funksiyasining cheklanganligi natijasida atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu sababli bunday bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda individual yondashuv hamda maxsus pedagogik yordam muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatga moslashuvda oila, pedagog, psixolog hamda tibbiyot mutaxassislarining hamkorligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Eshitisdagi nuqsonlarni erta aniqlash, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni o'z vaqtida tashkil etish va otionalarning pedagogik madaniyatini oshirish bolalarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar bolalarning nafaqat harakat faoliyatini, balki nutq, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini ham faollashtiradi. Shu bois motor rivojlantiruvchi mashqlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli ravishda kiritish muhimdir.

Eshitisda nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan kompleks yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashtirish va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning uyg'un tashkil etilishi ularning shaxs sifatida kamol topishi, mustaqil hayotga tayyorlanishi hamda jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Яни П.А. Воспитание и обучение глухого ребенка. Сурдопедагогика как наука / П.А. Яни; пер. с нем. – М.: Академия, 2003. – 256 с.
2. Шматко Н.Д., Пельмская Т.В. Если малыш не слышит: Книга для воспитателей и родителей / Н.Д. Шматко, Т.В. Пельмская. – М.: Просвещение, 1995. – 128 с.
3. Кардаш Я.А. Педагогическое взаимодействие коррекционного учреждения и семьи в реабилитации детей с нарушением слуха: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.03. – Екатеринбург, 2005. – 198 с.
4. Ляпидевский С.С. Невропатология. Естественно-научные основы специальной педагогики: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / С.С. Ляпидевский; под ред. В.И. Селиверстова. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 384 с.
5. Кошелева Л.Н. Социально-педагогическая адаптация детей с ограниченными возможностями: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – Сургут, 1998. – 186 с.
6. Выготский Л.С. Основы дефектологии. – СПб.: Лань, 2003. – 654 с.
7. Соловьев И.М. Психология познавательной деятельности нормальных и аномальных детей. – М.: Просвещение, 1966. – 224 с.
8. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. – М.: Академия педагогических наук РСФСР, 1963. – 335 с.
9. Рау Ф.Ф., Слезина Н.Ф. Методика обучения произношению в школе глухих. – М.: Просвещение, 1981. – 191 с.
10. Богданова Т.Г. Сурдопсихология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2002. – 224 с.
11. Мастюкова Е.М. Ребенок с отклонениями в развитии: Ранняя диагностика и коррекция. – М.: Просвещение, 1992. – 95 с.
12. Никольская О.С. Особый ребенок: исследования и опыт помощи. – М.: Теревинф, 2000. – 240 с.
13. Маллер А.Р. Социальное воспитание и обучение детей с отклонениями в развитии. – М.: АРКТИ, 2002. – 124 с.
14. Стребелева Е.А. Коррекционно-развивающее обучение детей в процессе дидактических игр. – М.: ВЛАДОС, 2008. – 256 с.
15. Венгер Л.А. Психология развития ребенка дошкольного возраста. – М.: Просвещение, 1988. – 192 с.
16. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. – М.: Академия, 2006. – 384 с.
17. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Смысл, 2001. – 512 с.
18. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: в 2 т. – М.: Педагогика, 1986. – Т. 1. – 320 с.
19. Монтессори М. Помоги мне сделать это самому. – М.: Карапуз, 2000. – 272 с.
20. Селиверстов В.И. Специальная педагогика: учебник для вузов / под ред. В.И. Селиверстова. – М.: ВЛАДОС, 2012. – 512 с.